



UDK:811.111.1:159.3.301(575.1)

Nilufar YULDASHOVA,
O'zbekiston jurnalsitika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, PhD
E-mail:yuldashova-n@mail.ru

O'zJTU dotsenti, PhD I.Mo'ydinova taqrizi asosida

THE ROLE OF CURIOSITY IN ENSURING ACADEMIC AND PERSONAL SUCCESS

Annotation

The following article describes a rich understanding of the role of curiosity in facilitating academic and personal success in high-achieving language learners. Additionally, five areas such as intellectual challenge, approach to uncertainty, relationship to fear of failure, search for meaning and purpose, and the effect of psychosocial support were analyzed.

Key words: Curiosity, learning orientation, performance orientation, uncertainty, intellectual challenge, fear and failure, willingness, ability.

РОЛЬ ИНТЕРЕСА В ОБЕСПЕЧЕНИИ АКАДЕМИЧЕСКОГО И ЛИЧНОГО УСПЕХА

В данной статье описывается глубокое понимание роли интереса в обеспечении академического и личного успеха у тех, кто успешно изучает язык. Кроме того, были проанализированы пять областей, таких как интеллектуальные задачи, подход к неопределенности, связь со страхом и неудачей, поиск смысла и цели, а также влияние психосоциальной поддержки.

Ключевые слова: интерес, ориентация на обучение, ориентация на результат, неопределенность, интеллектуальный вызов, страх и неудача, готовность, способность.

AKADEMIK VA SHAXSIY MUVAFFAQIYATNI TA'MINLASHDA QIZIQISHNING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada til o'rganuvchilar uchun akademik va shaxsiy muvaffaqiyatni ta'minlashda qiziqishning roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, intellektual qiyinchilik, ikkilanishga yondashuv (yechim), muvaffaqiyatsizlik va qo'rquv bilan bog'liqlik, ma'no va maqsadni izlash va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashning ta'siri kabi beshta yo'nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qiziquvchanlik, o'rganishga yo'naltirish, natijaga yo'naltirish, noaniqlik, intellektual qiyinchilik, qo'rquv va muvaffaqiyatsizlik, tayyorlik, qobiliyat.

Kirish. Bugungi oliy ta'lim muassasi bitiruvchilari shiddat bilan rivojlanib boruvchi kelajakka duch kelishmoqda. Sifatli ma'lumotlarga kirishning kengayishi va ularning global iste'moli bizning talabalarimiz duch keladigan bilim iqtisodiyoti haqidagi bugungi tushunchani o'zgartirmoqda [7]. Xozirgi kunda ma'lumotlarga keng kirish imkoniyati tufayli oliy ta'lim oldida o'zining ma'lumot beruvchi vazifasini ko'rib chiqish ehtiyoji tug'ildi. Talabalarni chuqurroq tanqidiy tahlil qilish, sintez qilish va materiallar yaratishga jalb qilish mamlakatimiz ravnaqi, shuningdek bugungi raqobatbardosh mehnat bozorida o'z o'mini topish va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishi har qachongidan ham muhimroqdir. Bular sababli oliy ta'lim muassasalari talabalar akademik muvaffaqiyatga erishishlari uchun ularga motivatsiya beruvchi faktorlarni aniqlashni maqsad qilib olmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Emmon o'zining talabalarni jalb qilishning konseptual modelida psixologik motivatsiyani talabalarni jalb qilishning muhim jihati sifatida belgilaydi [1]. Motivatsion omillarni tushunish nima uchun bir hil bilim darajasi va muhitga ega bo'lgan talabalar turli darajadagi faollikni boshdan kechirishlarini tushuntirishga yordam beradi. Binning tadqiqotlari boshqalardan sezilarli darajada farq qiladi, bunga sabab talabaga nafaqat "atrof-muhit bo'lagi" sifatida emas, balki jalb qilish jarayonida "dinamik psixologik sub'ekt" sifatida qaraladi.

Binning ishidan tashqari, ijobiy psixologiyaning rivojlanayotgan sohasi insonning motivatsiya darajasiga va oxir-oqibat uning akademik va shaxslararo muvaffaqiyatiga

sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ijobiy xususiyatlar bo'yicha tadqiqotlarni kengaytirdi. Launsberi va Fisherlar o'z tadqiqotlarida qat'iylik, umid, qiziquvchanlik, o'zini o'zi boshqarish va g'ayrat - bularning barchasi talabalarning oliy ta'limdagi tajribasi va akademik yutuqlaridan qoniqishi bilan bog'liq bo'lgan kuchli tomonlar ekanligini aniqladilar [8]. Keyingi tadqiqotda (Louis & Hulme, 2012) qiziquvchanlik yuqori natijalarga erishgan talabalar orasida eng ko'p uchraydigan kuchli xarakter ekanligi aniqlandi. Bulardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarni ham o'quv, ham sinfdan tashqarida real hayotda muvaffaqiyatga erishishga e'tibor qaratganligi sababli, qiziquvchanlikni rivojlantirish ularning sa'y-harakatlarida birinchi o'rinda turishi kerak.

Kashden qiziqishni motivatsiya va o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni noma'lum narsalarni o'rganishga, yangilikni qabul qilishga va noaniqlikka dosh berishga tayyorlik deb ta'riflaydi [4]. Tadqiqotchi Silviya esa [3] odamlar qiziqishni boshdan kechirganda, ular chuqurroq va mazmunli tarzda o'rganadilar, ma'lumotni yaxshiroq eslaydilar, ko'proq diqqatni jamlaydilar va maqsadlariga erishguncha davom etadilar deb takidlaydi. Xarachkevich, Barron, Tauer va Elliot esa qiziquvchanlik bilan bogliq bo'lgan faol xatti-harakatlar va kognitiv qobiliyatlar akademik muhitda yuqori darajadagi o'rganish, jalb qilish va ishlash bilan bog'liq degan xulosaga kelishdi [9]. Yana bir qancha olimlar qiziqish hissiy intellekt, qarorlarni qabul qilish jarayonini takomillashtirish va ichki motivatsiya kabi

o'rganish omillari bilan sezilarli ijobiy aloqaga ega ekanligini o'z tadqiqotlarida eslatib o'tadilar [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada muhokama qilingan hozirgi tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida yuqori natijalarga erishgan talabalarda qiziqishning yanada chuqur taraflarini tushunishga qaratilgan.

Qiziqishning mohiyati va xususiyatlarini tushunish uchun talabalar bilan ikki bosqichdan iborat intervyular o'tkazildi. Har bir intervyu talabalarining noaniqlik (ikkilanish) bilan kurashish, muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirish va hayotdagi ma'no va maqsadni izlash bo'yicha qarashlarini o'rganib chiqdi. Intervyuda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va qiziqarli sinf muhiti bilan bog'liq savollar ham o'z aksini topgan. Ikkinchi intervyuda birinchi intervyuda yoritilgan mavzular batafsilroq ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Suhbat davomida qiziqish talabani tadqiqot olib borish va o'rganish istagida namoyon bo'ldi. Biroq, o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi insonning o'rganishdagi yo'nalishiga qarab ikki xil yo'l bilan rivojlandi. Talabalar mahoratga erishish (o'rganishga yo'naltirilgan) yoki tashqi o'rnatilgan standartlarga (natijalarga yo'naltirilgan) erishish uchun o'rganish istagini namoyish etdilar. O'rganish uchun tadqiqot yo'lini boshlaganlar mavzu yoki faoliyat haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga intildilar. Bu talabalar savollar berishdi, chunki ular chuqur o'rganishga juda qiziqishgan. Ular mavzu yoki faoliyat turini o'zlashtirish uchun samimiy istak tufayli akademik mavzuni o'rgandilar yoki sinfdan tashqari real hayotda bo'lib o'tadigan mashg'ulotlarda qatnashdilar. Bu jarayonda talabalar keng va chuqur qiziqishlarga ega ekanliklari aniqlandi. Muvaffaqiyatga intilayotgan talabalar o'rganishga ko'proq yo'naltirilgan yondashuvga moyil edilar. Talabalar materialni o'rganishdi va professor o'qituvchidan ma'lumot qidirishdi, lekin ular ko'pincha sinf faoliyatini yaxshilaydigan mavzularni o'rganish ehtimoli ko'proq ekanligini aytishdi. Talabalar o'zlarining qiziqishlaridan yaxshi baho yoki tashqi mukofotga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish uchun foydalanganlar.

Namunada talabalar ko'pincha o'quv yo'nalishini ham, natijaga erishish yo'nalishini ham birlashtirdilar, ammo yo'nalishlardan biri ularning munosabati va xatti-harakatlarida doimiy ravishda ustun bo'lganligi aniq edi. Ushbu topilma akademik ko'rsatkichlar va mahorat maqsadlarini ajratib turadigan maqsadlarga erishish nazariyotchilarining ishini aks ettiradi. Ishlash maqsadlari insonning boshqalardan ustun bo'lish istagiga (ishlash yondashuvi) yoki boshqalar tomonidan ustun bo'lish qo'rquviga (ishlashdan qochish) asoslanadi. Mahoratga erishish maqsadlari odamlarning yaxshiroq bo'lish istagiga asoslanadi [4]. Ushbu tadqiqot doirasida biz beshta sohani aniqladik: intellektual qiyinchilik, noaniqlikka (ikkilanishga) yondashuv, muvaffaqiyatsizlik yoki qo'rquv bilan bog'liqlik, ma'no va maqsadni izlash va ishtirokchilarimizning tayyorligiga va ularning akademik muhitda o'rganishga bo'lgan ishonchiga ta'sir qilgan psixologik qo'llab-quvvatlash jihatlari.

Intellektual qiyinchilik. Kuchli qiziqish tuyg'usiga ega bo'lgan talabalar yangi ma'lumot va tajriba olish imkoniyatlarini faol ravishda izlaydilar [11]. Kurs doirasida talabalarining intellektual jihatdan murakkab materialga qanday yondashishi natija yoki o'rganishga yo'naltirilganlar o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Natijaga yo'naltirilgan talabalar, birinchi navbatda, baholashlar, o'qituvchilarning fikr-mulohazalari va kursni muvaffaqiyatli yakunlash bilan baholananagan sinf ko'rsatkichlari bilan qiziqishgan. Talabalar o'zlarining birgalikdagi o'quv faoliyatini ularning harakatlari tengdoshlar yoki bo'lajak ish beruvchilar tomonidan tan olinishiga qanday hissa qo'shishiga qarab baholadilar. O'rganishga yo'naltirilgan talabalar sinfda bilimlarni birgalikda yaratishda o'z rollarini angladilar, taqdim

etilgan ma'lumotlarni hozirgi voqealar bilan bog'lash uchun qayta ko'rib chiqdilar, ishtirok etish uchun ichki motivatsiyani namoyish etdilar va ularga hozirgi ega bo'lgan bilimlaridan tashqari vazifalar qo'yilishini xohladilar.

Ikkilanishga yondashuv (yechim). Kashden takidlashicha qiziquvchanlik darajasi yuqori bo'lgan insonlar hayotning noaniq tomonlarini qabul qilishadi [4]. Ular, qoida tariqasida, bilim yoki oldingi tajribaning yetishmasligi sabab to'xtab qolmaydilar. Talabalar tomonidan berilgan savollarning mohiyatini o'rganib chiqish o'qishga yo'naltirilgan talabalar va natijalarga yo'naltirilgan talabalar o'rtasida aniq farqni ko'rsatib berdi. Natijani maqsad qilganlar aniq javobni topish va shuning uchun noaniqlikni bartaraf etish uchun savollar berishga moyil edilar. Ushbu talabalar ko'pincha tor so'rov yondashuviga (narrow approach) rioya qilishdi va darsda taqdim etilgan keyingi muammoni hal qilish uchun yakuniy javob olish niyatida savol berishdi. O'rganishga e'tibor qaratganlar o'z bilimlarini kengaytirish uchun savollar berishdi. Ular muntazam ravishda so'rash uchun yangi savollarni o'ylab topishdi, chunki ular o'zlarini uchun noaniqlik yaratishni yaxshi ko'rishardi.

Bundan tashqari, o'rganishga e'tibor qaratgan talabalar real hayotiy vazifalarni bajarishda ko'proq tavakkal qilishga majbur bo'ldilar. Ular notanish joylarga sayohat qilib, rivojlanish imkoniyatini osongina ko'rib chiqdilar. Xorijiy mamlakatlarga sayohat qilish va turli guruhlariga qo'shilish ularning noaniq tajribaga tayyorligini ko'rsatdi. O'rganishga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning qiziqish darajasini oshiradi, bu esa tavakkal qilish uchun ko'proq motivatsiyaga olib keladi.

Natijalarga yo'naltirilgan talabalar, agar ular harakat bilan bog'liq bo'lgan aniq tashqi mukofot bo'lmasa, noaniqlikka kamroq moyil edilar. Shu sababdan natijalarga yo'naltirilgan talabalar xavf-xatarlardan qochishga moyilliklari aniqlandi.

Muvaffaqiyatsizlik yoki qo'rquv bilan bog'liqlik. Binobarin, talabalarining ikkilanishni qabul qilishga tayyorligi ularning muvaffaqiyatsizlikka bo'lgan munosabati bilan chambarchas bog'liq. Natijaga e'tibor qaratganlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan vaziyatlardan qochishi mumkinligi ko'rindi. Talabalarining shaxsiyati ular harakatlarida qanchalik muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lganiga mos keladi. Agar ular muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin deb o'ylashsa, bu ularning qaror qabul qilish qobiliyatiga va oxir-oqibat qiziqish darajasiga ta'sir qiladi.

O'rganishga e'tibor qaratganlar muvaffaqiyatsizlikni rivojlanish imkoniyatini beruvchi omil sifatida ko'rdilar. Ular o'zlarining muvaffaqiyatsizliklarini qayta ko'rib chiqdilar va o'qishdagi muvaffaqiyatlarini ta'kidladilar. Shuningdek bunday ta'lim oluvchilar o'z qobiliyatlarini aniqlashda muvaffaqiyatsizlikka tayanmadilar. Ular muvaffaqiyatsizlik ularning qobiliyatini aniqlashga yo'l qo'ymaslik uchun kurashni tan olishdi va qabul qilishdi. Noaniqlikni (ikkilanishni) qabul qilish va muvaffaqiyatsizliklarni qayta ko'rib chiqish, shubhasiz, qiziquvchanligi o'rganishga yo'naltirilganligi bilan shakllangan talabani belgilaydigan ikkita jihat edi. Biroq, o'rganish uchun eng chuqur motivatsiya talabani maqsadiga asoslanganligi ma'lum bo'ldi.

Ma'no va maqsad. Frankl o'z izlanishlarida hayotning maqsadi va ma'nosini izlash barcha odamlar uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch ekanligini taklif qildi [5]. Ushbu tadqiqotda ishtirok etgan talabalar maqsadga erishishni "o'z ehtirolariga ergashish" deb ta'rifladilar. Ular o'zlarining shaxsiy ehtirolari yoki hayotdagi maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan dars va mashg'ulotlar bilan shug'ullanganlarida ko'proq qiziqish ko'rsatdilar. Biroq, akademik ko'rsatkichlarga ya'ni natihaga ko'proq e'tibor qaratgan talabalar ko'pincha o'zlarining maqsadlarini to'plagan ballar

bilan bog'lashdi. Ular boshqalarning ishonchini oqlash, yetakchilik mavqeini egallash yoki yuqori GPAni saqlab qolishdan maqsad topdilar. Chuqur o'rganishga yo'naltirilgan talabalar tashqi mukofotlardan qat'i nazar, o'zlari yoqtirgan narsalarni o'rgandilar. Ularning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi ularga ma'no va maqsad beradigan mavzular va mashg'ulotlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib tuyuldi.

Ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarining ta'siri. Ishtirokchining izlanish, o'rganish istagiga ta'sir qilgan yana bir soha talabalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlari bilan bog'liq edi. Tadqiqotchilar Astin, Chikering va Rayserlar talabani qo'llab-quvvatlash tizimi unga qanday qilib egalik qilish, g'amxo'rlik qilish va boshqa odamlar bilan yoki o'zi bilan munosabatda bo'lish qiymatini oshirishi mumkinligini aniqladilar [6]. Ijtimoiy muhitda psixologik rivojlanish va u bilan o'zaro munosabatlar

ishtirokchilarning qiziquvchanlik darajasiga ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqotda qatnashgan talabalarning xabar berishicha, fakultetlar, talabalar bilan ishlash bo'limi va ota-onalar talabalar natija yoki o'rganish yondashuvidan foydalanib ta'lim olishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, qiziqish yangilik va qiyinchilikni aks ettiruvchi belgilarni shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari bilan bog'laydigan muhim motivatsion komponentdir. Oliy ta'lim muassasasida yuqori natijalarga erishgan talabalar akademik ko'rsatkichlari o'rtacha bo'lganlarga qaraganda ko'proq qiziqish darajasiga egaligi aniqlandi. Biroq, biz ushbu maqolada ko'rsatishga harakat qilganimizdek, hamma talabalar ham bir xil qiziqish va tadqiqot yondashuvini ko'rsatmaydilar. Muayyan ishlash standartlariga erishishga olib keladigan qiziqish o'rganishga qaratilgan qiziqishdan farqli natijalarga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Emmons, R. The psychology of ultimate concerns: Motivation and spirituality in personality. London: Gilford Press. 2003
2. Kashdan, T. Curious?: Discover the missing ingredient to a fulfilling life. New York: Harper Collings Publishers. 2009
3. Silvia, P. J. Exploring the psychology of interest. New York, NY: Oxford University Press. 2006
4. Pintrich, P. R., & Schunk, D. H. Motivation in education: Theory, research, and applications (2nd ed.). Upper Saddle River, NJ: Merrill. 2002
5. Frankl, V.E. Man's search for meaning (Rev. ed.). New York, NY: Washington Square Press. London: Gilford Press. 1985
6. Chickering, A.W., and Reisser, L. Education and identity. San Francisco, CA: Jossey-Bass Publishers. 1993
7. Kasworm, C. (2011). The influence of the knowledge society: Trends in adult higher education. The Journal of Continuing Higher Education, 59:104-107.
8. Lounsbury, J., Fisher, L., Levy, J; & Welsh, D (2009). An investigation of character strengths in relation to the academic success of college students. Individual Differences research, 2009. 7:1, pp. 52-69.
9. Harackiewicz, J. M., Barron, K. E., Tauer, J. M., & Elliot, A. J. Predicting success in college: A longitudinal study of achievement goals and ability measures as predictors of interest and performance from freshman year through graduation. Journal of Educational Psychology, 2002. 94:3, 562-575.
10. Leonard, N.H. & Harvey, M. (2007). The trait of curiosity as a predictor of emotional intelligence. Journal of Applied Social Psychology, 2007. 37: 1914–1929.
11. Tsai, Y. M., Kunter, M., Ludtke, O., Trautwein, U., & Ryan, R.M. What makes lessons interesting?: The role of situational and individual factors in three school subjects. Journal of Educational Psychology, 2008 100, 460 – 472.